

AXSIKENT SIVILIZATSIYASINING TARIXIY-FALSAFIY ASOSLARI VA UNING MILLIY O‘ZLIKNI SHAKLLANTIRISHDAGI O‘RNI

Kamolova Kimyoxon G‘ulomjonovna

Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Namangan davlat pedagogika instituti

kumush.otabek@gmail.ru

<https://orcid.org/0009-0007-9877-9321>

+99897-743-42-63

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21042052>

Annotatsiya: Ushbu maqolada Axsikent sivilizasiyasining tarixiy-falsafiy asoslari hamda uning milliy o‘zlikni shakllantirishdagi o‘rni ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilinib, Axsikent nafaqat qadimiy arxeologik yodgorlik, balki Markaziy Osiyo sivilizasiyasining siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ma’naviy taraqqiyotini o‘zida mujassam etgan muhim tarixiy qadriyatkardan biri ekanligi ochib berilgan. Bundan tashqari, Axsikent merosining Yangi O‘zbekiston sharoitida Uchinchi Renessans g‘oyalari, yoshlar ma’naviy tarbiyasi va milliy taraqqiyot strategiyasi bilan o‘zaro bog‘liqligi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Ахсикент, цивилизация, миллий ўзлик, тарихий хотира, маданий мерос, аксиология, Учинчи Ренессанс, миллий тараққиёт, тарихий тафаккур, цивилизацион ёндашув.

Аннотация: В данной статье анализируются историко-философские основы Ахсикентской цивилизации и ее роль в формировании национального самосознания с социально-философской точки зрения, раскрывается, что аксикент является не только древним археологическим памятником, но и одним из важнейших исторических ценностей, олицетворяющих политический, экономический, культурный и духовный прогресс среднеазиатской цивилизации. Кроме того, освещены идеи Третьего

Возрождения в контексте Нового Узбекистана, взаимосвязь наследия Ахсикента с духовным воспитанием молодежи и стратегией национального развития.

Ключевые слова: Ахсикент, цивилизация, национальная идентичность, историческая память, культурное наследие, аксиология, Третье Возрождение, национальное развитие, историческая мысль, цивилизационный подход.

Annotation: This article analyzes the historical and philosophical foundations of the Akhsikent civilization and its role in the formation of the national self from a socio-philosophical point of view, revealing that Akhsikent is not only an ancient archaeological monument, but also one of the important historical values that embodies the political, economic, cultural and spiritual progress of Central Asian civilization. In addition, the Axsikent heritage is discussed in the context of the New Uzbekistan, its connection with the ideas of the Third Renaissance, the spiritual education of youth, and the national development strategy.

Keywords: Axicent, civilization, national identity, historical memory, cultural heritage, axiology, third Renaissance, national development, historical thought, civilizational approach.

Axsikent – buyuk tariximiz ko‘zgusi. Bobolarimiz yashagan, qahramonlik ko‘rsatgan bu manzilda tariximizni tiklash uchun juda katta manba, o‘tmish dalillari bor. Biz shu paytgacha faqat mashhur shaharlarimiz tarixini o‘rgandik, bunday joylarga e’tibor qilmadik.

Ma’naviyatimizni yuksaltirmoqchi bo‘lsak, yoshlarimizni ota-bobolarimizning asl merosidan bahramand etib ulg‘aytirishimiz, xalqimizga yetkazishimiz kerak.

Sh.Mirziyoyev.

Insoniyat taraqqiyoti o‘z boshidan turli-tuman sivilizatsiyalarning yuksalishi va tanazzulini o‘tkazgan. Bu nafaqat siyosiy yoki iqtisodiy jarayonlar, balki ma’naviy qadriyatlar va ilmiy tafakkurning shakllanishi bilan ham belgilanadi. Bunda esa o‘z o‘rniga ega bo‘lgan ma’naviy boyliklar, qadriyatlar mavjud bo‘lib, ularning ichida Farg‘ona vodiysida shakllangan qadimiy shahar – Axsikent alohida o‘rin tutadi.

Yoshligimda Axsikent deganda ko‘z oldimda “Boburnoma”da tasvirlangan Umarshayx Mirzo bilan bog‘liq voqeilik namoyon bo‘lardi:

“Umar-Shayx Mirzo kaptarlarning lojuvard osmonda bir-birini quvlashib, aylanayotganiga zavq bilan tikilib qoldi. Kaptarlarning o‘yini unga bir zum o‘z taqdirini eslatdi. Mana necha yildirki Farg‘ona vodiysining yuragi bo‘lmish Axsikent yov taxlikasida. Azim Sayxunning qirg‘og‘ida joylashgan bu azim shaharga ko‘z tikkanlar qancha....

Birdan yer ostidan gumbirlagandek sas kelib, daryo ustida osilib turgan qal'a devori asta-sekin pastga pastga siljiy boshladi. Umar-Shayx Mirzo vazirining “Hukmdoriim” degan qichqirig‘ini elas-elas eshitdida, devor bilan birgalikda chang-to‘zonning ichida yo‘qoldi.....”

“Boburnoma”gi ushbu tasvir yillar davomida ko‘z o‘ngimdan ketmadi va faqat o‘sha joyni ko‘rish orzusi meni band qilgan edi. Bugungi Yangi O‘zbekiston sharoitida milliy o‘zlikni anglash, tarixiy merosni asrash va Uchinchi Renessans g‘oyalarini hayotga tatbiq etish maqsadida davlatimiz rahbari, arxeologlar va tarixchilar diqqat markaziga tushgan Axsikentning qayta tiklanishi mana shunday orzuning amalga oshishiga sabab bo‘ldi.

Axsikentni faqat arxeologik yodgorlik sifatida emas, balki Markaziy Osiyo sivilizatsiyasining ma’naviy, siyosiy va madaniy taraqqiyotini o‘zida mujassam etgan tarixiy-falsafiy fenomen sifatida o‘rganish ilmiy jihatdan dolzarb bo‘lgan vazifalardan hisoblanadi.

Axsikentning tarixiga nazar soladigan bo‘lsak, tarixiy manbalarda keltirilishicha, bu shahar miloddan avvalgi 3 - 2-asrlarda vujudga kelgan, 9 -10 - asrlarda Farg‘ona vodiysining poytaxti bo‘lgan. 1219 yilda mo‘g‘ullar tomonidan butunlay vayron qilingan.

Olima Zamira Isaqovaning ta’kidlashicha, Axsikent so‘zi “Axsining yurti” degan ma’noni bildiradi. Axsi esa Axzi so‘zidan olingan. Tarixchi Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” (XIV asr) asarida, Xusrav I Anushervon (532-579) Farg‘onani bino qilib, bu yerga har bir xonadondan bittadan kishini ko‘chirgan, o‘sha kishilardan birining ismi Axzi bo‘lib, u barpo etilgan joy uning nomi bilan atala boshlagan.

Tilshunos olim F.Ishoqov “Axsi” so‘zi hakas tilidagi “agis” so‘zining qisqarishidan kelib chiqqanini, ya’ni “agis” – agsi – axsi – shakliga kelganini ta’kidlaydi. Rus olimlari M.N.Bogolyubov va D.I.Smirnovalar esa “Axsikat” so‘zi sug‘d tilidan tarjima qilganda “xshikat” – “oq shahar” degan ma’noni anglatadi, deb yozganlar. Yozma manbalar va adabiyotlarda Axsikent “Axsi”, “Axsikat”, “Askatan”, “eski Axsi”, “yangi Axsi” deb yozib kelingan.

Mashhur sayyoh geografik olim Yoqut Hamaviyning (1179-1229) “Mo‘jam al-buldon” (“Mamlakatlar lug‘ati”) asarida yunon tarixchilari Gerodotning (miloddan avvalgi V-asr) “Tarix” va Ptolomeyning (miloddan avvalgi III asr) “Kundaliklar” asarlarida Farg‘onaning poytaxti “Askatan” deb tilga olingani eslatilgan. Xitoy sayyohi Chjon Syan (miloddan avvalgi II asr) o‘z kundaliklarida O‘rta Osiyoning Dovon (Davan) degan dehqonchilik yurti borligi, uning aholisi 300000 kishi bo‘lib, 60000 qo‘shinga egaligi, ular kamon va nayzalar bilan qurollangani va ot ustida jang kilishga mohir ekanliklari, sholi, g‘alla, uzum ekilishi, zotdor otlari haqida yozib qoldirgan.

“Boburnoma”da Axsikent haqida shunday tavsif beriladi:

“Sayhun suvining shimoliy tarafidagi shaharlardan biri Axsidir. Kitoblarda Axsikat deb yozadilar. Chunonchi, Asiriddin shoirni Asiriddini Axsikatiy deydilar. Farg‘onada Andijondan keyin bundan yirikroq shahar yo‘q.

Axsi Andijondan g‘arb sari to‘qqiz yig‘ochlik yo‘lda. Umarshayx mirzo buni poytaxt qilgan edi. Sayhun daryosi qo‘rg‘onining pastidan oqadi. Qo‘rg‘oni baland jar ustida joylashgan. Xandaq o‘rnida chuqur jarlar bor. Buni poytaxt qilgan Umarshayx mirzo bir-ikki marotaba tashqariroqdan yana jarlar qazdirdi.

Farg‘onada bunchalik mustahkam qo‘rg‘on yo‘q. Mahallalari qo‘rg‘ondan bir shar‘iy yiroqroqda joylashgan. “Qishloq qayerdayu, daraxtlar qayerda?” maqolini aftidan Axsi uchun aytganlar. Qovuni yaxshi bo‘ladi. Bir nav qovunini “mirtemuriy” deydilar, bunday qovunning boshqa joyda ham borligi ma’lum emas. Buxoro qovuni mashhurdir. Samarqandni olgan paytimda Axsidan, Buxorodan qovun keltirib, bir o‘tirishda so‘ydirdim. Axsi qovunining hech misli yo‘q edi. Ovlanadigan qushlari behad yaxshi bo‘ladi. Sayhun daryosining Axsi tarafi dashtdan iborat. Oq kiyigi ko‘p bo‘ladi. Andijon tarafi to‘qay; bug‘u-maral, qirg‘ovul va yovvoyi quyon ko‘p. Aksari juda semiz bo‘ladi” .

Farg‘ona vodiysi qadimdan Sharq sivilizatsiyasining markazlaridan biri bo‘lgan. Qulay tabiiy sharoit, serhosil yerlar, suv resurslari va xalqaro savdo yo‘llari ushbu hududda yirik shahar madaniyatining rivojlanishiga xizmat qilgan.

Arxeologik topilmalar shaharda yuqori darajada rivojlangan shaharsozlik tizimi, mukammal muhandislik ishlari(uyllarning joylashish o‘rni, suv to‘g‘onlari va kanallarining qurilishi), hunarmandchilik (temirchilik, kulolchilik, shishasozlik, zargarlik va qurolsozlik) va savdo infratuzilmasi mavjud bo‘lganligini ko‘rsatadi. Axsikentdagi har bir topilma o‘sha davrdagi yuqori texnologik madaniyatning yuksak darajada rivojlanganligidan darak beradi. Bu esa shahar iqtisodiy qudratining ma’naviy va intellektual taraqqiyot bilan uzviy bog‘liqligini anglatadi.

Axsikent Buyuk Ipak yo‘li tarmoqlarida joylashganligi uchun ham turli madaniyatlar, ilm-fan yutuqlari va sivilizatsiyalar o‘rtasidagi muloqot maydoni

vazifasini ham bajargan. Shunday ekan, Axsikentni o‘rganish milliy o‘zlikni o‘rganish sanaladi. Bilamizki, milliy o‘zlik – bu muayyan xalqning, millatning o‘z tarixi, madaniyati, qadriyatlari, tili, va ma’naviy merosini anglashi hamda ularni kelajak taraqqiyotining asosi sifatida qabul qilishidir. Bu jarayonda tarixiy shaxslar, tarixiy shaharlar va sivilizatsion markazlar xalqning jamoaviy xotirasi va madaniy identikligini shakllantiruvchi muhim omil sifatida maydonga chiqadi. Axsikentni mana shunday ma’naviy tayanch nuqta sifatida ko‘rsatish mumkin. Axsikent nafaqat Farg‘ona vodiysi, Namangan tarixi, balki butun O‘zbekiston davlatchiligi tarixi va madaniy taraqqiyotining muhim ramzi hisoblanadi.

Falsafiy nuqtai nazardan, Axsikent yodgorligi yoshlar kamolotida milliy o‘zlikning quyidagi muhim asoslarini shakllantirishga xizmat qilishi mumkin:

1. Tarixiy xotirani shakllantiruvchi makon sifatida - xalqning ko‘p asrlik taraqqiyot tajribasini o‘zida mujassam etadi. U milliy xotiraning moddiy ifodasi sifatida avlodlar o‘rtasidagi ma’naviy vorisiylikni ta’minlaydi.

2. Milliy g‘urur va o‘zlikni mustahkamlovchi omil hisoblanadi. Yuksak madaniyat va rivojlangan sivilizatsiyaga ega bo‘lgan ajdodlar merosini anglash – insonda faxrlanish tuyg‘usi, Vatanga sadoqat va milliy mas’uliyatni shakllantiradi.

3. Yangi Renessans g‘oyalarining tarixiy ildizlaridan biri sifatida qaraladigan bo‘lsa, bugungi Yangi O‘zbekiston sharoitida Uchinchi Renessans g‘oyasi tarixiy sivilizatsion merosga tayangan holda rivojlanmoqda. Shuning uchun ham Axsikent nafaqat o‘tmish yodgorligi, qadriyatlari, balki ilm-fan, innovasiya, ma’naviyat va milliy taraqqiyot g‘oyalarini uyg‘unlashtiruvchi tarixiy ramz sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Demak, Axsikentni faqatgina arxeologik tarixiy yodgorlik sifatida emas, balki milliy sivilizatsion xotiraning moddiylashgan shakli, tarixiy o‘zlikning ma’naviy tayanchi va milliy identlilikni anglashning aksiologik manbai sifatida o‘rganish va kelajak avlodlarga yetkazish maqsadga muvofiqdir. Uning tarixini mukammal o‘rganish, o‘tmish ajdodlar hayoti haqida bilim olish bilangina

cheklanib qolmaydi, balki jamiyat rivojining ma’naviy barqarorligi, milliy birligi va kelajak taraqqiyoti uchun zarur bo‘lgan qadriyatlar tizimini mustahkamlashga ham xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Zahiriddin Muhammad Bobur. “Boburnoma”. “Ijod - press” nashriyoti. 2020 yil.
2. S.Jalolov. Bobur haqida o‘ylar. Toshkent. “Sharq” nashriyoti. 2006 yil.
3. <https://gov.uz/oz/namangan/news/view/23471>
4. <https://nargis.uz/?p=960>